

**QORAQALPOG'ISTON SHAHARLARI VA AHOLISI HAYOTINING
AHMAD ZAKI VALIDIY XOTIRALARIDA TASVIRLANISHI.**

Mambetbaev Miyirbek Mirzabay uli

Shimbay tumani 44 sanli umum ta'lim berish maktabi tarix fani o'qituvchisi

Ahmad Zaki Validiy (1895–1970) - atoqli tatar tarixchisi, etnograf va jamoat arbobi. U Tatar Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining Qozon shahrida tug'ilgan bo'lib, tatar xalqi, shuningdek, Volgabo'yi va O'rta Osiyoning boshqa xalqlari tarixi va madaniyatiga oid tadqiqotlari bilan mashhur bo'lgan.

Rossiyadagi fuqarolar urushidan keyin uning hayoti va faoliyati mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar bilan mustahkam bog'langan. U surgunda bo'lgan, Turkiya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarda yashab, ilmiy faoliyatini davom ettirgan va milliy o'zlikni anglash masalalariga qiziqib kelgan.

Ahmad Zaki Validiy tarixiy tadqiqot va etnografiya sohasida o'z ortidan salmoqli meros qoldirgan va uning ijodi hali ham ilmiy doiralarda qadrlanadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin Ahmad Zaki Validiy ijodi haqida yurtimizda ham tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Maxamadjon Abduraxmanovning "A. Z. Validiyning Turkistondagi ilmiy faoliyati" nomli monografiyasi nashr etilgan[2]. Xujayev Muminjon "Ahmad Zaki Validiyning tarix falsafasi konsepsiyasi" mavzusida tadqiqot olib borgan[9]. Qoraqalpog'istonda uning ijodi haqida tadqiqot olib borilmagan bo'lsa da bir qator tarixchi olimlar tomonidan XX asr 20-30 yillar tarixini yoritishda foydalanilgan.

Zaki Validiy o'tgan asrning 20-yillari Qoraqalpog'iston hududidan o'tgan va uning shaharlari, urf-odatlari haqida xotiralarida yozib qoldirgan. Zaki Validiy Ustyurt tekisligidan o'tib, keyin Qo'ng'iro't shahriga kelgan. Qo'ng'iro't shahri haqida u: "Qo'ng'iro't Xiva xonligining viloyatlaridan birining markazi, bor-yo'g'i bir necha yuz uydan iborat aholi punktidir. Biroq, bu shahar o'tgan asrlarning tarixiy manbalarida Germaniyaning Gamburg, Angliyaning Manchester yoki Xitoyning Shanxay shaharlari bilan bir xil o'rinda turadi.....Shaharni Rossiya bosqinidan ancha oldin, hatto Oltin O'rda xonlari davrida ham o'sha olis davrda hududni boshqargan Qo'ng'iro't qabilasining shahzodalari barpo etgan"[1:23]-deb yozadi. Lekin, u qo'ng'iro'tni tatarlarning urug'laridan biri bo'lib Chingizxon bosqinshiligi davrida kelganligini ta'kidlab o'tadi. Bizga tarixdan ma'lumki qo'ng'iro't qabilasi mo'g'ullar bosqinshiligidan oldin ham yurtimizda yashagan. Shunga qaramasdan, Zaki Validiyning shahar va uning aholisi haqida ma'lumotlari yurtimiz tarixi uchun o'z

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ahamiyatini yo'qotmaydi. Yurtimizda Qo'ng'iro't shahri tarixi bo'yicha X.Esbergenov[4], S. Saymanov[7]lar tadqiqot olib borgan va Zaki Validiyning xotiralaridan tadqiqotlarida foydalangan. Qo'ng'iro't shahri tarixi haqida X.Esbergenov va S. Saymanovning olib borgan tadqiqotlari, shaharning madaniy va tarixiy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda Zaki Validiyning xotiraları ham o'z o'rnini egallaydi, chunki u shahar hayoti, an'analari va urf-odatları haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Shuningdek, u Qo'ng'iro't shahri haqida: "X asrda turkiylar tarixiga oid ma'lumotlar mavjud bo'lgan geografiyaga oid arab kitoblarida "Boqirg'on" nomi tilga olingan. Hozir esa shaharning shimoli-g'arbida XII asrning mashhur so'fiy shayxi Hakim ota Boqirg'oniy maqbarasi joylashgan Baqirg'on qishlog'i joylashgan...Bolaligimda esa islom dinidan darslar chog'ida o'z ona turkiy tilimda ushbu ma'naviy mazmundagi kitobni yoddan bilish imkoniga ega bo'ldim"[1:24]- deb Hakim otaning ijodiga yuqori baho beradi. Shuni ta'kidlashki kerakki, O'zbekistonda, jumladan, Qoraqalpog'istonda Hakim Ota ijodi bo'yicha bir qator olimlar tadqiqot olib borgan. Hakim Ota o'z davrining mashhur shoir va mutafakkirlaridan biridir. Uning asarlari o'zbek va qoraqalpoq adabiyoti va sufiyizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Shuningdek, Zaki Validiy Qo'ng'iro't shahrini bu davrda Junayidxon nomidan mahalliy o'zbek biy Bala bek boshqarayotganini yozgan. U Qoraqalpog'iston tarixida Bala biy (asl ismi Qutlimurat) ismi bilan mashhur bo'lib, qoraqalpoqlarning batirlaridan biri hisoblanadi.

Qo'ng'iro't shahrining aksariyat aholisi kambag'allar ekanini ta'kidlaydi: "Qo'ng'iro't bozoridan zig'ir, yevropacha ko'ylaklar, xiva choponlarin sotib olib, hammomga borganini...bu yerdagi kambag'allar har qanday kiyimni hatto olovdan ham tortib olishga tayyor edilar....Qo'ng'iro'tda uylar bir-biridan baland va qalin taxta panjaralar bilan ajratilgan yozgi turar joy sifatida qurilgan. Sug'orish tizimi va bozor hayoti Xorazm tarixini tasvirlovchi o'rta asr kitoblarida qanday ko'rinishda aks etgan bo'lsa, xuddi shunday shaklda saqlanib qolgan. Bir tafsilot xotiramda saqlanib qolgan: XIII asrda Xorazmga tashrif buyurgan arab olimi Yoqut Hamavi shunday yozgan edi: "Xorazmning ko'chalari ahlatlarga to'la, chunki barcha aholi ko'chada tahoratlarini ko'chada qiladi". Biz yashayotgan uyning xo'jayini otxonaga tahorat qilish uchun ketayotganimizni payqab, norozi bo'lib baqirdi: "U yerga bormang, otxona – uyimdek toza, ko'chaga chiqing". Darhaqiqat, bu yerdagi molxonalar juda toza, lekin ko'chalar aholining axlatiga to'la[1:25-26].

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Qo'ng'irotdan 80 kilometr uzoqlikda joylashgan Chimboyga yo'l Amudaryo deltasidagi botqoqliklardan o'tadi. Ko'p joylarda otlarni kichik qayiqalarda kanallar va ko'llar bo'ylab tashish kerak edi. Qadimgi islom geografiya kitoblarida aytilganidek, bu yerda yovvoyi cho'chqalar ko'p bo'lgan.

Chimboyda jadidchilik (yangi usul) maktabi faoliyat yuritgan. Biz bir tatar-mug'allim – shu maktabning muallimining uyida qoldik. Bu yerda so'zak keng tarqalgani haqida ogohlantirildik. Mug'allimning aytishicha, ko'plab bolalar tug'ilgandanoq bu kasallikka chalinadi. O'sha oqshom biz katta ichki qo'rquvni yengib, bizga taklif qilingan taomni yedik. Keyinchalik, Qoraqalpoq Sovet Respublikasi tashkil topganidan so'ng, ko'plab shifokorlar tayyorlagan mahalliy ziyolilar bu dahshatli kasallikni engdi, ammo 1920 yilda vaziyat yomon edi[1:28].

Chimboy tarixini o'rgangan A. Kudiyarovning Zaki Validiyning Chimboy haqida yozganlarini hisobga olmaganligi tanqidiy qarashga sabab bo'ladi[5]. Zaki Validiyning asarlari, albatta, Chimboyning tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini yorqin aks ettirgan. Agar A. Kudiyarovning tadqiqotlari Zaki Validiyning ishlari bilan taqqoslanganda, ularning bir-birini to'ldirishi va o'rganilayotgan mavzuda to'g'ri kontekst berishi mumkin edi. Shuningdek, Zaki Validiyning manbalari va tadqiqotlariga asoslanish, Chimboy tarixini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

“Eshitishimcha, Chimboyda qoraqalpoqlar orasida Nuriddin degan xalq shoiri bor ekan. Men uni ko'rmoqchi edim. Sharq xalq og'zaki ijodi yig'uvchi va tadqiqotchisi Belyaev qadimgi turkiy rivoyatlarni, ayniqsa, qoraqalpoq va qozoq rivoyatlarini yaxshi bilgan bu oqsoqol bilan uchrashib, uning og'zidan dastan va rivoyatlardan parchalar yozib oldi. Shoir bilan uchrashishga muvaffaq bo'ldim. U Edige, To'xtamish, Temur haqidagi dostonlarni yoddan bilar edi, men hammasini yozishga harakat qildim”-dep yozadi. Bizning fikrimizcha Nuriddin shoir emas jiraw bo'lsa kerak. Chunki, qoraqalpoqlarda dostonlarni jiraw-baxsilar jiraydi.

“Men yozganlar orasida Oltin O'rdaning mashhur arbobi Edige bilan Temurning Xorazmdagi do'sti va valisi Shahmalik o'rtasidagi suhbat haqida ma'lumot bor edi. Men bu voqea haqida hech qayerda eshitmaganman. Ammo men bu dostonni bir necha yil o'tib, 1925-yilda Konstantada asli do'brujalik bir no'g'ayning og'zidan eshitdim. Ajabo, bu hikoyachining ismi Nuriddin edi. Holbuki, qoraqalpoq oqini Nuriddin men hayotligimda tinglashdan zavqlangan qipchoq hikoyachilarining eng ko'zga ko'ringan, eng bilimdoni edi. U katta hayajon bilan Temur va Edige haqidagi dostonidan ilgari noma'lum bo'lgan, voqealar Xorazm bilan bog'liq bo'lgan joylarni hikoya qiladi”[1:28-29]. K.Allambergenov[3], M. Maqsetova[6]lar Edige haqida tadqiqot olib

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

borgan, lekin ular qoraqalpoq xalq dastani “Edige” asosida o‘rgangan. Shu jihatdan Zaki Validiyning bergan ma’lumotlari tariximiz uchun juda muhim hisoblanadi.

Qo‘ng‘irot va Chimboy oralig‘ida, Nukusga boradigan yo‘lda bir necha asrlar ilgari bu yerda qo‘nim topgan boshqird oilalari yashaydi. Bu yerda ularni boshqurlar yoki estyaklar deb atashadi, urug‘lari esa Manqanay, Qayipnazar, Qora Terenchi va Qalmurtaylilardir. Qoraqalpoqlar, boshqirdlar singari, tobelarga (hukumat birliklariga) bo‘lingan va biz kabi xalq yig‘inlari "yiyin" deb ataladi. Dostonchi Nuriddinga ketayotib, bu boshqirdlarni ziyorat qildim. Ularning o‘zlari ota-bobolari bu erga ettinchi va sakkizinchi avlodlarda kelgan deb hisoblashadi. Ehtimol, bu XVIII asrda Qayip Xon davrida sodir bo‘lgan, ammo ba’zi qismi undan ham oldinroq ko‘chib ketgan. Keyinchalik ko‘chmanchilar avvalgilariga qo‘shilishdi. Qo‘ng‘irot biylari davrida ko‘chmanchi boshqirdlarning birinchi oqimi muhim siyosiy tadbirlarda qatnashgan”[1:29]. B. Opaev o‘zining tadqiqot ishida Axmet Zaki Validiyning ma’lumotlaridan foydalangan holda bashqurtlar bilan qoraqalpoqlarning odatlarining uxshash jihatlarini ko‘rsatishgan[8].

“Chimboy ma’muriy jihatdan Xiva xonligi tarkibiga kirmas edi. U markazi To‘rtko‘l (Petroaleksandrovsk)da bo‘lgan Xiva Amudaryo okrugiga kirardi. Sirdaryoda joylashgan Kazalinskdan bu yerga qizil otryad ko‘chib kelayotgani haqida mish-mish tarqaldi. Shuning uchun men yulboshlovchi yollab, ikki kundan keyin yo‘lga chiqishga qaror qildim. 2 noyabr kuni Nukusga keldim. Hozirgi kunda bu katta shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasining markazi, lekin o‘sha paytda kichik qishloq edi. Shu yerda tunadim, ertasiga Amudaryoning g‘arbiy sohilidagi Xo‘jayli shahriga yetib keldim. Bu qadimiy shahar bo‘lib, uni arablar Ardaxushmison deb atashgan. X asrda Bag‘dod xalifasi boy vazirlaridan biri Ibn al-Furotga tegishli edi. Ibn Fadlon bu yerlardan o‘tganda, bir nasroniy hukmronlik qilgan. Xalifa bu mulklardan tushgan daromadni Volga bulg‘orlariga o‘tkazishga ruxsat berib, bolgar hukmdorlari olgan mablag‘larini chegara istehkomlarini qurishga, shuningdek, maktablar ochishga yo‘naltirdi. Bu mulklarning daromadlari shunchalik katta ediki, ular butun Volga buyining eng dolzarb ehtiyojlarini qondirishi mumkin edi. Biroq hozir bu yerda diqqatga sazovor tarixiy obidalarni topa olmadim....Ixtiyorimga qo‘yilgan uchta qo‘riqchi hamrohligida Kunya Urganchga yetib keldim va ertasiga o‘zinning yo‘lboshchilari hamrohligida Xo‘jayli Nukus yo‘li bo‘ylab yo‘l oldim. Nukus yaqinidagi qishloqda tunab qoldim. Yo‘lboshchi bilan hisob-kitob qilib, boshqasini yollab, keyingi tunni Xo‘jakulda, uchinchisini Biybozorda o‘tkazdim. Biybozor ma’muriy jihatdan To‘rtko‘lda joylashgan rus hokimiyati va garnizoniga bo‘ysunganligi uchun beixtiyor tashvish paydo bo‘ldi. O‘shanda men ko‘zoynakni o‘ta zarur hollardagina taqib,

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

yashirin choʻntagimda koʻtarib, odatdagi xivaliklardek kiyinib, qozoqcha gapirishga harakat qilardim”[1:32].

“Bu yerda esa tarixiy obidalarga qiziqib qoldim. Nukusda yollangan yulboshlovchiga pulini berib, uyiga joʻnatib yubordim. Ertasi kuni Amudaryoning sharqiy sohilida joylashgan Shayx Abbas Valiy degan qishloqqa bordim. Bu yerda Xorazmning qadimiy poytaxti Kyat shahri xarobalari saqlanib qolgan. Qadimgi Xorazmning mashhur oilalari, buyuk allomalar Abu Nasr ibn Iroq va al-Beruniylar vatani boʻlgan bu shaharning tosh devorlari oʻzining ulugʻvorligi bilan hamon hayolni hayratda qoldiradi. Men bu erda hech kimni uchratmadim, yolgʻiz kezdin, koʻplab qabr toshlari va yozuvlarni koʻzdan kechirdim, lekin kamera yoʻqligi sababli ularni keyinchalik oʻrganish uchun suratga olishning iloji boʻlmadi.

Bugun Shayx Abbas Valiy kichik bir qishloq. Ammo Abbosiy xalifasi Maʼmun oʻz davrida rux sandiqlarda eksport qilgan mashhur Xorazm qovunlarini bu yerda hamon uchratish mumkin. Haligacha “Shayx Abbas qovunlari” deb atalgan bu qovunlardan toʻyib yedim”.

Shuni taʼkidlash kerakki, Zaki Validiy yozgan bu joy hozir ham oʻzining qovunlari bilan mashhur. Bugungi kunda Beruniy tumanida joylashgan boʻlib katta yul boʻyida qovun bozori hozir ham bor.

“Shoh Abbas Valida ikki kun turdim. Toʻrtkoʻl rus garnizoni yaqinda edi, lekin u yerdan hech kim kelmadi. Men yuqoridagi savdogarning uyida tunab, 13 avgust kuni ertalab yulboshlovchi yollab, otda Xivaga joʻnadim”[1:34]. Shu yerda Zaki Validiyning Qoraqalpogʻiston hududidan chiqib ketgani maʼlum boʻladi .

Xulaso qilib shuni aytish mumkinki, Ahmad Zaki Vailidi Qoraqalpogʻiston tarixi va madaniyati haqida yozgan asarlarida oʻz millatiga va yurtiga boʻlgan muhabbati, ularga nisbatan qattiq his-tuygʻulari koʻzga tashlanadi. U Qoraqalpogʻistonning tarixiy merosi, madaniyati va xalqining hayoti haqida chuqur tahlil va tadqiqotlar olib borgan. Vailidiy haqida baʼzi muhim jihatlarini taʼkidlab oʻtish joiz:

Milliy ruhiyat: U asarlarida oʻz xalqining tarixi, urf-odatlarini va anʼanalarini saqlab qolish va rivojlantirishga chaqiradi, milliy ongini uygʻotish uchun koʻp harakat qiladi.

Tarixiy tadqiqotlar: Vailidiy Qoraqalpogʻiston tarixini oʻrganishda keng koʻlamli tarixiy manbalarni tahlil qiladi va bu orqali oʻz xalqining boy tarixini yoritadi.

Yurtsevarlik: Uning asarlarida yurtsevarlik va oʻz millatiga boʻlgan sadoqat har doim markaziy oʻrin egallaydi. U oʻz xalqining oʻzligiga, madaniyati va tarixiy merosiga boʻlgan hurmatini aks ettiradi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Madaniyat va adabiyot: U asarlarida Qoraqalpog'iston madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini ham yoritadi, bu uning tarixini to'liqroq tushunishga yordam beradi.

Ahmad Zaki Validiy Qoraqalpog'iston tarixini o'rganish jarayonida o'z millatining g'ururi va tarixiy huquqlarini himoya qilishga intiladi. Uning asarlari nafaqat Qoraqalpog'iston, balki butun O'zbekiston tarixi haqida muhim ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Ахмет Заки Валидий Тоган. Воспоминания. Книга II. – Уфа: Китап, 1998. – С. 368.
2. Абдурахманов М. „Научная деятельность А. З. Валидова в Туркестане“, Ташкент, Издательство „Фан“ Академии наук РУз., 2004. - 238 с.
3. Алламбергенов К. Каракалпакский народный эпос "Едиге": (Генезис. Жанровые признаки. Типология нац. версий) Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.филол.н., Ташкент 1996. — 54 с
4. Есбергенов Х. Қоңырат тарийхий хэм мәдений естеликлери. – Нөкис, 1993. – 102 б.
5. Кудияров А. История города Чимбая (XIX – начало XX вв.). – Нукус: Илим, 2019. – 123 с.
6. Мақсетова М. Исторические корни эпоса «Едиге». Автореф на соиск. уч. ст. к. ист. н. -Нукус, 1995
7. Сайманов С. Город Кунграда в сообщениях путешественников и ученых XIX в (40-60-е гг. XIX в.) // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – Нукус, 1997. - №1-2. – С. 103.
8. Ораев В. Qoraqalpog'istonda qozilar sudi tarixi. Nukus, 2024. – 58 b.
9. Xujayev M. Ahmad Zaki Validiyning tarix falsafasi konsepsiyasi. DSc dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2024. – 64 b.